

**“IFRS” НОМЛИ  
КОНФЕРЕНЦИЯ**

CONFERENCE “GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

2nd FORUM OF  
DEVELOPMENT  
STRATEGY:  
GLOBAL AND  
NATIONAL  
ECONOMIC  
TRENDS



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS

FERENCE  
RS”

2nd FORUM OF  
DEVELOPMENT  
STRATEGY:  
GLOBAL AND  
NATIONAL  
ECONOMIC  
TRENDS

19-20 ОКТОВЕР ФОРУМ  
PARALLEL CONFERENCE  
“NEW2AN, ICFNDS  
AND ICDSIS”

“ГЛОБАЛ  
ИКТИСОДИЙЁТНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ  
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА  
ИСТИҚБОЛЛИ ЙЎНАЛИШЛАР  
“Глобал ва миллий  
иктиносидиётни

“NEW2AN, ICFNDS AND ICDSIS”  
CONFERENCE  
“IFRS”

GLOBAL  
ECONOMIC  
STRATEGY:

2nd FORUM OF  
DEVELOPMENT “IFRS”

# РАЗМЕРЛІ ИКТИСОДИЙСТЫК VA АХВОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ELEKTRON ILMIY JURNALI MAXSUS SON

## ФОРУМ

19-20 ОКТОВЕР

PARALLEL CONFERENCES  
“NEW2AN, ICFNDS  
AND ICDSIS”

РАЗМЕРЛІ ИКТИСОДИЙСТЫК  
АХВОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ  
ВА ТАЛЬИМНИНГ  
ИСТИҚБОЛЛИ ЙЎН  
“NEW2AN, ICFNDS,  
НОМЛИ ПАРАЛЛЕЛЬ  
КОНФЕРЕНЦИЯЛАР”

- Macroeconomic Stability
- Social Welfare
- Human Capital
- Decent Employment
- World Economy
- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agriculture



**РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АҲБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ**  
**DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY**  
**ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ**

Электрон илмий журнал | Electronic scientific journal

**МУАССИС | FOUNDER**

Тошкент давлат иқтисодиёт университети  
Tashkent State University of Economics

**ТАҲРИР КЕНГАШИ РАИСИ | CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD**

Шарипов Конгратбой Аvezimbetovich — т.ф.д., профессор  
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich — doctor of technical sciences, professor

**БОШ МУҲАРРИР | EDITOR-IN-CHIEF**

Абдуллаев Мунис Курбонович – и.ф.ф.д. (PhD), доцент  
Abdullahayev Munis Kurbonovich – PhD, docent

**БОШ МУҲАРРИР ЎРИНБОСАРИ | DEPUTY CHIEF EDITOR**

Вафоев Бобуржон Расулович – и.ф.н., доцент  
Vafoev Boburjon Rasulovich – PhD, docent

**МАСЪУЛ КОТИБ | EXECUTIVE SECRETARY**

Л.А. Аблазов | L.A. Ablazov

**ВЕБ-АДМИНИСТРАТОР | WEBMASTERS:**

Н.Я. Нурсайдов, А.Ш. Махмудов | N.Ya. Nursaidov, A.Sh. Makhmudov

**ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ | EDITORIAL BOARD**

- |  |                                      |
|--|--------------------------------------|
| С.С. Гулямов – и.ф.д., академик.       | PhD. Беҳзод Саидов (АҚШ).            |
| Б.А. Бегалов – и.ф.д., профессор.      | PhD. Умид Ахмедов (Дания Қироллиги). |
| М.П. Эшов – и.ф.д., профессор.         | А.А. Исмаилов – и.ф.д., профессор.   |
| О.Қ. Абдурахмонов – и.ф.д., доцент.    | И.Е. Жуковская – и.ф.д., профессор.  |
| К.Б. Ахмеджанов – и.ф.д., профессор.   | Т.С. Қўчқоров – и.ф.д., профессор.   |
| И.М. Алимарданов – и.ф.д., доцент.     | Р.А. Дадабаева – и.ф.н., доцент.     |
| Р. Салиходжаев – и.ф.б.ф.д. (PhD).     | Ш.И. Хашимходжаев – и.ф.н., доцент.  |
| Проф. Холназар Амонов (Чехия).         | А.А. Абидов – т.ф.н., доцент.        |
| Проф. Карина Татек Банетти (Чехия).    | И.М. Абдуллаева – и.ф.н., доцент.    |
| Проф. О. Абдураззаков (Германия).      | Н.Б. Абдусаломова – и.ф.д., доцент.  |
| Проф. Эко Шри Маргianti (Индонезия).   | Ш.С. Эгамбердиев – и.ф.б.ф.д. (PhD). |
| Проф. Д.М. Назаров (Россия).           | Р.Х. Алимов – и.ф.д., профессор.     |
| Проф. Н.М. Сурнина (Россия).           | А.У. Қобилов – и.ф.н., доцент.       |
| Проф. Марк Розенбаум (АҚШ).            | Р.Х. Насимов – т.ф.б.ф.д. (PhD).     |
| PhD. Абдул-Рашид (Афғонистон).         | С.С. Қулматова – и.ф.б.ф.д. (PhD).   |
| PhD. Аҳмед Моҳамед Азиз Исмоил (Миср). |                                      |

МУНДАРИЖА:

<b>Шарипов К.А., Ишназаров А.И.</b>	<b>ИКТИСОДИЙ ЎСИШГА ИНВЕСТИЦИЯ ОҚИМЛАРИ ТАЪСИРИНИ ЭКОНОМЕТРИК ТАДҚИҚ ҚИЛИШ . . . . .</b>	<b>6</b>
<b>Eshov M.P., Nasirkhodjaeva D.S.</b>	<b>IMPACT OF THE DEVELOPMENT DIGITAL ECONOMY ON THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE COUNTRY . . . . .</b>	<b>14</b>
<b>Abdurahmanova G.Q., Mirzaliyev S.M.</b>	<b>OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARI . . . . .</b>	<b>25</b>
<b>Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т.</b>	<b>ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ . . . . .</b>	<b>28</b>
<b>Abdullahayev M.K., Qulmatova S.S.</b>	<b>LOYIHALASH JARAYONLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSİYA TEXNOLOGİYALARIDAN FOYDALANISHDA DİZAYN MUAMMOLARI . . . . .</b>	<b>34</b>
<b>Абидов А.А.</b>	<b>ДИАГНОСТИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В УСЛОВИЯХ ВОЗМУЩАЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ СРЕДЫ . . . . .</b>	<b>40</b>
<b>Юлдашев А.А.</b>	<b>ЛОГИСТИКА СОҲАСИДА БЛОКЧЕЙН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ САМАРАДОРЛИГИ . . . . .</b>	<b>47</b>
<b>Yakubova Sh.Sh.</b>	<b>DIGITAL DEVELOPMENT AND THE NATURE OF DIGITAL ASSETS</b>	<b>56</b>
<b>Ergashxodjayeva Sh.Dj.</b>	<b>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XARIDORLAR MA’LUMOTLARI MAXFIYLIGINI TA’MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR . . . . .</b>	<b>64</b>
<b>Xashimxodjayev Sh.I., Zhukovskaya I.E.</b>	<b>DIGITAL TECHNOLOGIES ARE A STRONG BASIS FOR THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE COUNTRY . . . . .</b>	<b>72</b>
<b>Амридинова Д.Т., Курбанова С.А.</b>	<b>ЦИФРОВАЯ ЭКАНОМИКА И ОНЛАЙН ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ . . . . .</b>	<b>79</b>
<b>Fayziyeva Kh., Tursunov Kh., Khidirova M., Kulmanov T., Zikriyoev A.</b>	<b>GROWING UP IN A CONNECTED WORLD: INTERNET USAGE DYNAMIC IS DIGITAL AGE OR HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT? . . . . .</b>	<b>88</b>
<b>Fayziyeva M.X.</b>	<b>TIJORAT BANKLARI TAKLIF ETGAN RAQAMLI TEXNOLOGİYALARDAN FOYDALANISHNI BAHOLASH . . . . .</b>	<b>104</b>
<b>Qobilov A.O., Abdulaxatov M.M., Rajabov Sh.B., Zokirov S.Z.</b>	<b>ASSOTSIATIV QOIDALAR VA BOZOR SAVATLARINING TAHLILI . . . . .</b>	<b>115</b>
<b>Ризакулов Ш.Ш.</b>	<b>БЛОКЧЕЙН ТЕХНОЛОГИИ В ЭКОНОМИКЕ: НА ПРИМЕРЕ ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВО . . . . .</b>	<b>121</b>
<b>Назарова Р.Р., Нигматуллаева Г.Н.</b>	<b>СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА . . . . .</b>	<b>126</b>
<b>Meyliev O.R., Gofurova K.X.</b>	<b>THE ROLE OF ELECTRONIC COMMERCE IN THE DIGITAL ECONOMY . . . . .</b>	<b>132</b>

<b>Ma'murov B.X.</b>	RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA HUDUDLAR IQTISODIYOTI TARKIBIY TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOHIYATI VA UNING OMILLARI .....	142
<b>Гаппов Ж.Б.</b>	ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ПЛАТЕЖНЫХ СИСТЕМ НА ПРИБЫЛЬНОСТЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ .....	150
<b>Maxmudov S.B.</b>	MILLIY IQTISODIYOTDA EKSPORT AMALIYOTIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK TAHLILINI BAHOLASH ...	160
<b>Nursaidov N.Y., Vafoev B.R.</b>	PROBLEM OF LIMITED ACCESS TO THE INTERNET IN MOBILE LEARNING .....	172
<b>Хидирова Б.И.</b>	РАҶАМЛИ ИҚТISODIЁТНИ ШАКЛАНТИРИШГА НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР .....	179
<b>Xalilova N.K.</b>	O'ZBEKİSTON SHAROITIDA XARİDORLARNI BOSHQARISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	187
<b>Рахматова Ш.О.</b>	РАҶАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ШАРОИТИДА БИЗНЕСНИНГ ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТИНИ БАҲОЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	196
<b>Axmedova S.I.</b>	RAQAMLI IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJY MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....	203
<b>Мирзарахимова А.Б.</b>	СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИНИ РАҶАМЛАШТИРИШДА ЭЛЕКТРОН ТИББИЙ ЁЗУВЛАРНИНГ РОЛИ .....	209
<b>Abdurakhmonov A.A.</b>	O'ZBEKİSTONDA RAQAMLASHTIRISH TENDENSIYALARI VA UNDAGI MAVJUD MUAMMOLAR .....	215
<b>Abduraxmanova Z.T.</b>	O'ZBEKİSTONDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANТИRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING O'RNI .....	223
<b>Mustafakulov O'.U.</b>	STATISTIKA TIZIMIDAGI RAQAMLI PLATFORMALARINI BAHOLASH VA ULARNI TANLASH .....	232
<b>Tal'atova D.B.</b>	RAQAMLI TENGSIZLIKNI BARQARORLASHTIRISHNING IQTISODIY O'SISHDAGI O'RNI .....	238
<b>Nabiyeva F.O.</b>	RAQAMLI BANKING: QIYINCHILIKLAR, RIVOJLANAYOTGAN TEXNOLOGIYA TENDENSIYALARI VA KELAJAKDAGI TADQIQOTLAR .....	244
<b>Yax'yayev O.Y.</b>	"JUST IN TIME" XALQARO MENEJMENT MODELI, O'RGANILISHI, AMALIYOTI, RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI .....	254
<b>Yuldashev I.S., Ro'ziev N.I.</b>	RAHBARNING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARINI O'RGANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	260
<b>Тўраева Н.О.</b>	КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИДА РАҶАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ .....	265
<b>Muzaffarova D.M.</b>	TASHKILOTNING FUNKSIONAL OPERATSIYALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH YO'LLARI .....	275

Rustamova M.M.	KOTLIN TILIDA YARATILGAN XIZMAT SIFATINI BAHOLOVCHI “SAFE MOBILE” ILOVASI .....	285
Zikirullaeva N.	THE ROLE OF GOVERNMENT POLICIES IN ATTRACTING DIRECT FOREIGN INVESTMENTS .....	294
Anvarova M.M.	RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONINING KICHIK VA O’RTA BIZNES KORXONALARIGA ASOSIY TA’SIRI .....	305
Parpieva R.A., Norboyeva N.E., Anvarova M.M.	IMPROVING MEDIA LITERACY USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN PROFESSIONAL EDUCATION .....	311

**РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АҲБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ**  
**DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY**  
**ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ**

**ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ ЖУРНАЛ**

Мазкур электрон илмий журнал Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 19 декабрдаги “Оммавий ахборот ва коммуникациялар соҳасида давлат хизматлари кўрсатишнинг айrim маъмурӣ регламентларини тасдиқлаш тӯғрисида”ги 1017-сонли қарорида белгиланган вазифалардан келиб чиқиб, Тошкент давлат иқтисодиёт университети томонидан 2021 йил март ойида таъсис этилган ҳамда халқаро интернет тармоғига жойлаштирилган.

This electronic scientific journal was established by the Tashkent State University of Economics in March 2021, based on the tasks defined in the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 19, 2019 No. 1017 «On approval of some administrative regulations for the provision of public services in the field of public information and communications» posted on the internet.

Нашр қилинаётган “Рақамли иқтисодиёт ва ахборот технологиялари” электрон, илмий журнали Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 31 январдаги 332/6-сон қарори билан Иқтисодиёт фанлари бўйича “Фан доктори” илмий даражасига талабгорларнинг диссертация ишлари, илмий натижалари юзасидан илмий мақолалар эълон қилиниши лозим бўлган Республика илмий журналлари рўйхатига киритилган.

The electronic scientific journal “Digital economy and information technologies” published by the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated January 31, 2023 No. 332/6 announces scientific articles on the scientific results of dissertations of candidates for the degree of Doctor of Science in «Economic Sciences» included in the list of republican scientific journals that should be published.

**Журналнинг интернет ахборот тармоғидаги манзили:**

<https://dgeconomy.tsue.uz/jurnal>

**The address of the journal on the internet:**

<https://dgeconomy.tsue.uz/jurnal>

## KOTLIN TILIDA YARATILGAN XIZMAT SIFATINI BAHOLOVCHI «SAFE MOBILE» ILOVASI

Rustamova Mexrigiyo Muxtor qizi  
TDIU tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo’lidan borish imkoniyatini beradi” - Shavkat Mirziyoyev Miromonovich. Darhaqiqat, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi raqamli iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirib yubordi. “SAFE MOBILE” ilovasi Kotlin tilida yaratilgan bo’lib, xizmat ko’rsatuvchi kompaniyalarning mijozlar tomonidan o’z xizmatlari qanday baholanayotganligi, ularning takliflari haqida ma’lumotlarni inson omilisiz bilish, yig’ish, monitoring qilishga yordam beradigan, anonim tarzda ishlaydigan ilovadir. Afzalliklari shundaki, bu ilova orqali mijoz ham, kompaniya ham ortiqcha vaqt va mahsulot sarflamaydi, bildirilgan fikrlar maxsus parol bilan ochiladigan monitoring oynasida aks etadi. Ushbu ilova mijozlar tomonidan kompaniya xizmati baholangan vaqtini ham ko’rsatib, ijobiylar salbiy bildirilgan fikrlar soni statistikasini yuritadi va ma’lumotlar omborida saqlaydi. «SAFE MOBILE» ilovasi kompaniyaga ishchi xodimlari haqida mijozlarning fikrlarini bilishga ham yordam beradi. Illova yordamida to’plangan ma’lumotlardan unumli foydalanib, tegishli xulosalar olinganda, mijozlar tomonidan mavjud deb topilgan muammolar bartaraf qilinganida, xizmat sifati mijozlar fikrlari asosida mu-kammallashtirilganida kompaniya rivojlanishiga katta hissa qo’shiladi.

**Tayanch so’zlar.** Raqamli iqtisodiyot, «SAFE MOBILE» ilovasi, Kotlin, inson omili, monitoring, anonim, parol, statistika, ma’lumotlar ombori.

### Kirish:

Biz yashayotgan, kun sayin, hattoki soat sayin rivojlanib borayotgan ushbu davrda “raqamli iqtisodiyot” iborasiga tez-tez ko’zimiz tushadi, yoxud ushbu jumla qulog’imizga chalinadi. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ta’kidlaganlaridek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo’lidan borish imkoniyatini beradi”.

Raqamli iqtisodiyot - raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog’liq iqtisodiy faoliyat hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig’indisidir. Ba’zida u “internet iqtisodiyoti”, “yangi iqtisodiyot” yoki “veb-iqtisodiyot” kabi atamalar bilan ham ifodalanaadi. Soliqlar, kommunallar, internet va mobil xizmatlar uchun to’lovlarini uyda turib kunning istalgan vaqtida amalga oshirish bizni behad mamnun qiladi.

Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshirdi. Zero, kundalik hayotimizda oddiygina kiyim-kechak, oziq ovqat, texnika buyumlari va hokazolarni online buyurtma qilish odatga aylanib bormoqda. Yoinki, kun ora temir yo’l va havo yo’llari chiptalarini online sotib olish, mehmonxona, dam olish, ovqatlanish, sayohat maskanlariga oldindan buyurtma berish, yoki boradigan manzilimizga ortiqcha ovoragarchiliklarsiz online taksi xizmatidan foydalanib yetib olish kabilarga duch kelamiz. Banklarning mobil ilovalar

orgali mijozlarga taklif etayotgan online kreditlari yosh tadbirkorlarga katta imkoniyatlar es-higini ochmoqda. Birgina “My.gov.uz” - yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ko’rsatiladigan xizmatlar soni joriy yilning 6-aprel sanasiga ko’ra 400 dan oshgan.

Mobil ilovalar orqali sog’ligimizni nazorat qilib borishimiz mumkinligi, yurak urushi, qon bosimini aniqlay olish imkoniyati, kunlik faol bo’lib yoki telefonimizdan foydalanib o’tkazgan vaqtlarimizni nazorat qilib borish, biror dori-darmonni qaysi dorixonada borligi-yu, qanaqa narxda topish mumkinligini bilish kabilalar yoshi ulug’larimizni ham befarg qoldirmadi, balki texnologiyalarga yanada oshno qildi desam, adashmagan bo’laman.

Ko’rinib turibdiki, raqamli iqtisodiyot hayotimizning eng kichik jabhalariga ham kirib bordi. Endigi masala esa yirik iqtisodiy bitimlar va moliyaviy operasiyalarni raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirishni rivojlantirishdan iborat. Darhaqiqat, ko’plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta’sir o’tkazgan.

Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va „qora iqtisodiyot“ning asosiy kushandasidir. Chunki raqamlar hamma ma’lumotlarni muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda tezda taqdim eta oladi. Bunday sharoitda ma’lumotni yashirish, u yoki bu faoliyat haqida to’liq axborot bermaslikning iloji yo’q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo’yadi. Ma’lumotlar ko’pligi va tizimliliyi yolg’onga yo’l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz.

“2022-2026-yillarga mo’ljallangan “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga doir Davlat dasturi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 10-bandidagi “Ahолига smartfon va mobil ilovalar yordamida о’з sog’lig’i va ovqatlanishini nazorat qilishni о’rgatish, to’g’ri ovqatlanish bo’yicha mobil ilova yaratish” va 13-bandidagi “Suv resurslarini boshqarishda uzluksiz tizimni yo’lga qo’yish hamda suvni tejaydigan raqamli texnologiyalarni joriy qilish hisobiga suvni yetkazib berishdagi tabiiy yo’qotishlar hajmini 10 foizgacha kamaytirish” kabi jumlalar ham mobil ilovalarga bo’lgan juda katta ehtiyoj va talabni ko’rsatib turibdi.<sup>119[1]</sup>

### **Adabiyotlar tahlili va metodlar:**

“SAFE MOBILE” ilovasi ma’lum bir kompaniya mijozlarining ko’rsatilayotgan xizmat sifatini baholashlariga yordam beruvchi Kotlin dasturlash tilida yozilgan mobil ilovadir.

Kotlin, 2011-yilda JetBrains kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va 2017-yil Android dasturlash uchun rasmiy til sifatida qabul qilingan. U Java tilining mukammallashtirilgan varianti bo’lib, Java virtual mashinasida ishlaydi. Kotlin Java tiliga yaqin bo’lgan yana bir dasturlash tilidir, lekin unda sodda, qulay va xavfsiz kod yozishni amalga oshirish uchun bir nechta afzalliklar mavjud:

1. Qulay sintaksis: Kotlin Javaga nisbatan ochiq va sodda sintaksisga ega. Bu, kodni o’qish va tushuntirishni osonlashtiradi.
2. Null xavfi: Kotlin dasturlash tili nuqta, vergulni talab qilmaydi va “Null Pointer Exception” xavfini kamaytirdi.
3. Kodni qisqartirish: Kotlin dasturlash tilida Java dasturlash tiliga qaraganda kodni 40 foizgacha qisqartirish imkoniyati mavjud.
4. Java dasturlash tilini to’liq qo’llab-quvvatlaydi: Kotlin dasturlash tili Java dasturlash tillari bilan turli usullarda ma’lumot almashish va foydalanish imkonini beradi.

<sup>119 [1]</sup> “2022-2026-yillarga mo’ljallangan “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga doir Davlat dasturi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

5. Ko'p tarmoqliligi: Multiplatform mobile, Server-Side, Android, Web Frontend, Data science larda ishlataladi.

Bugungi kunda Kotlin dasturlash tili haqida batafsil ma'lumotlar beradigan adabiyotlar juda ko'p. «SAFE MOBILE» ilovasi yaratilishida ham Kotlin dasturlash tilini mukammal o'rgatuvchi bir nechta kitoblar dastur-ul amal bo'lib xizmat qildi, jumladan ilova yaratilishidan oldin John Hunt<sup>120[2]</sup>, Swati Saxena<sup>121[3]</sup>, Iyanu Andelikan<sup>122[4]</sup>, Dmitriy Jemerov va Svetlana Isakova<sup>123[5]</sup>, Skin Josh va Grinxol Devidlar<sup>124[6]</sup> tomonlaridan yozilgan kitoblar mutolaa qilindi.

### Natijalar:

Biz yaratgan ilova faqatgina planshetlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ayniqsa 1200x2000 o'lchamdagি planshetlarga juda mos tushadi. Ushbu ilova shartli ravishda mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi "SAFE MOBILE" kompaniyasining nomi bilan atalgan. «SAFE MOBILE» ilovasi orqali kompaniyaning quyidagi xizmatlarini baholash mumkin:

- 1.Raqam tanlash xizmati.
- 2.Mobil aloqa vositalarini sotib olish va o'rnatish xizmati.
- 3.Sputnik aloqa xizmati.
- 4.Rasmiylashtirish xizmati.
- 5.Sputnik internet xizmati.
- 6.Rouming xizmati va hokazolar.

Ilovaning har bir oynasidagi dizayniga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, "SAFE MOBILE" operatori xizmat sifatini baholash tizimi" oynasidagi (1-rasm) har bir xizmat nomi oldidan uni ifodalaydigan belgi aks ettirilgan.


<sup>120 [2]</sup> John Hunt. Beginner's Guide to Kotlin Programming – USA.: Springer International Publishing, 2021. – 519.

<sup>121 [3]</sup> Swati Saxena. Kotlin at a glance - USA.: BPB Publications, 2019. – 213.

<sup>122 [4]</sup> Ияну Анделикан. Kotlin программирование на примерах – Санкт-Петербург.: БХВ – Петербург, 2020. – 432.

<sup>123 [5]</sup> Дмитрий Жемеров и Светлана Исакова. Kotlin в действии - Москва.: ДМК, 2018. – 402.

<sup>124 [6]</sup> Скин Джош и Гринхол Дэвид. Kotlin. Программирование для профессионалов – Санкт-Петербург.: Издательский дом "Питер", 2019. – 464.




### 1-rasm. 2-rasm.

Mijozlar baholash uchun berilgan xizmatlardan birini tanlaydilar va oynada tanlangan xizmatning bir nechta tarmoqlari aks etadi. Misol uchun, shartli ravishda tayyorlangan «SAFE MOBILE» ilovasida “Raqam tanlash xizmati” tanlanganida, oynada “Rasmiy sayt yoki rasmiy ofisidan raqam tanlash xizmati. Xizmatni baholash imkoniyati mavjud. Ushbu xizmatni baholaysizmi?” savoli aks etadi (2-rasm), “Ha” javobi tanlanganida esa shu xizmatning quyidagi tarmoqlari (3-rasm) namoyon bo’ladi:

1. Xizmat vaqtি.
2. Xodimlarning xushmuomalaligi.
3. Xizmat ta’riflari.
4. Boshqalar.


Oyna pastida “yaxshi” va “yomon” baholar mavjud bo’lib, bu baholar ham mos ravishda shu bahoni anglatuvchi belgilar bilan dizaynlashtirilgan. Qulayligi shundaki, aks etganlardan bir vaqtning o’zida bir nechtasini belgilab, “yaxshi” baholash yoki qolganlarini yana belgilab, “yomon” deb baholash mumkin. Misol uchun, quyida “Xizmat vaqtি”, “Xodimlarning xushmuomalaligi” va “Xizmat ta’riflari” kabilar “yaxshi” deb baholanayotgan jarayon tasvirlangan (4-rasm).



### 3-rasm. 4-rasm.


Mijozlar nafaqat "yaxshi" yoki "yomon" degan baholarni tanlashadi, balki o'z fikr-muhazalarini bildirishlari, takliflarini, minnatdorchiliklarini, yoinki, shikoyatlarini yozib qoldirishlari mumkin. Buning uchun "Boshqalar" deb nomlangan buyruq tanlanishi kifoya (5-rasm). Shikoyatlar o'rganilganda mavjud muammolar bartaraf etiladi, kamchiliklar tuzatiladi, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning har biri haqida umumiy xulosalar chiqariladi, kerak bo'lса, qoldirilgan izohlardan qaysi xodim eng yaxshi xizmat, yoki qaysi xodim sifatsiz xizmat ko'rsatilayotganligini aniqlash mumkin. Tabiiyki, xodimlar o'rtasida sof raqobat yuzaga keladi, raqobat bor joyda esa doim o'sish bo'ladi. Mijozlarning istaklarini inobatga olish, takliflari asosida kompaniya xizmatlarini mukammallashtirib, yangiliklar qilib borish, albatta, kompaniyani yanada rivojlantiradi. Zero, xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar mijozlarga xizmat qilishadi.

Mobil ilova kuchli himoyalangan bo'lib, mijozlarning fikrlari va baholarini faqatgina monitoring parolini biladigan kompaniyaning mas'ul xodimlarigina ko'ra oladi. Ya'ni monitoring oynasi ochilishi uchun parol kiritilishi lozim (6-rasm).



### 5-rasm. 6-rasm.


Shartli ravishda «SAFE MOBILE» ilovasiga 8991 paroli o'rnatilgan. Monitoring oynasi ochilganida har bir xizmat turining nomi, uning chap tomon pastida esa shu xizmat turining "yaxshi" baholar soni, o'ng tomon pastida esa "yomon" baholar soni ko'rindi. Quyidagi monitoring oynasidan "Rasmiy saytdan yoki rasmiy ofisdan raqam tanlash" xizmatining 4 ta "yaxshi" va 1 ta "yomon", "Mobil aloqa vositalarini sotib olish (vaqtinchalik ijaraga berish) va (yoki) o'rnatish (qurish)" xizmatining 1 ta "yaxshi" va 2 ta "yomon" baho olganligini, "Mobil aloqa vositalari va raqamlarni rasmiylashtirish" xizmatining 1 ta "yaxshi" baho olganligini va "yomon" baho olmaganligini, "Sun'iy yo'ldosh orgali internet" xizmatining esa 2 ta "yaxshi" va 2 ta "yomon" baho olganligini, "Xorijiy operatorlar tarmoqlarida barcha rouming" xizmatining 4 ta "yaxshi" va 1 ta "yomon", "Aerosuratlarni olish va kosmik suratga olish materiallarining nazorat ko'riganidan o'tkazish uchun ruxsatnoma" xizmatining 3 ta "yaxshi" va 1 ta "yomon" baho olganligini ko'rish mumkin (7-rasm). Monitoring oynasidagi baholar haqida yanada batafsilroq ma'lumot olish uchun, mijozlarning qoldirgan fikr-mulohazalarini o'qish mumkin, buning uchun xizmat turi tanlanadi, oynada bu xizmat turining qaysi tarmog'ida, qaysi sanada, qaysi vaqtida, qanday baho olganligi va qoldirilgan fikrlar aks etadi (8-rasm), (9-rasm). "SAFE MOBILE" kompaniyasining bir mijizi tomonidan "Sputnik internet" xizmati uchun 23-avgust 2023-yil sanasida, soat 11:19 da "Hammasi ajoyib. Katta rahmat. Ammo "SPUTNIK INTERNET" xizmatining sifati yaxshi emas" kabi fikr qoldirilganligini ko'rish mumkin (9-rasm). Bu ma'lumotlar ombori kompaniya faoliyatini o'rganish, ma'lumotlarni istalgan vaqtida tez topish, ko'rish, tahlil qilish imkoniyatini yaratadi, shu bilan birga statistik nuqtayi nazardan real vaqt qatori vazifasini ham bajaradi.



**7-rasm.**



**8-rasm.**



**9-rasm.**

### Tahlil:

Xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar uchun ko'rsatilayotgan xizmatlar mijozlar tomonidan qanday baholanayotganligini bilish shu kompaniyaning rivoji, kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Kompaniya mijozlarga qanday xizmat ko'rsatilganda, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar tomonidan qanaqa munosabat qilinganda ular mamnun bo'lishlarini bilganida bu fikrlar asosida yangiliklar joriy etadi, o'zgartishlar kiritadi, mijoz bilan yaxshi munosabat o'rнata oladigan xodimlarni ishga jalb qiladi. Zero, kompaniya rivoji uchun mijozlarning ta-

lablarini tinglash, ularni qo'llab-quvvatlash juda muhimdir! Ilgari xizmat ko'rsatilgandan keyin mijozlardan xizmat sifati haqida fikrlarini bilish uchun anketa to'ldirishlari iltimos qilin-gan, lekin bu har doim ham juda samarali yo'l emas edi, negaki mijozlardan ozgina ko'proq vaqt talab qilgan, katta ehtimol bilan anketa to'ldirishni rad etuvchi mijozlar ham mavjud bo'lган, qog'oz, qalam uchun ortiqcha xarajatlar va yana eng asosiysi to'ldirilgan anketalar-ni sarhisob qilish, qayta ko'rib chiqish kompaniyadan yana ortiqcha ishchi kuchi, vaqt talab etgan, ya'ni jarayonga inson omili qatnashgan. Inson omilining ishtiropi, anketa to'ldirish-dan bosh tortagan, so'rovnomada ishtirop etmagan mijozlarning mavjudligi so'rovnomada natijalarining haqiqatga yaqinligi ehtimolini pasaytirib yuborgan. Xizmat ko'rsatuvchi kom-paniyalar mijozlardan xizmatlari haqidagi fikrlarini tez, oson, ortiqcha xarajatlarsiz, inson omili ishtiropisiz bilib olishlari uchun "SAFE MOBILE" ilovasi yaratildi. Bu ilova asosan, plan-shetlarga mo'ljallangan bo'lib, kompaniyaning xizmat ko'rsatilgan mijozlari bir necha soni-yada o'z fikr, mulohaza, taklif, shikoyatlarini qoldirishlari uchun xizmat qiladi. «SAFE MO-BILE» ilovasi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

**1. Xizmat sifatini o'rganish:** ko'rsatilayotgan xizmat va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar haqida mijozlar fikrlarining monitoring tahlili yuritib boriladi va faqatgina monitoring tahlil oynasini ochish uchun kerak bo'ladigan parolni biladigan mas'ul shaxsgina natjalarni ko'rib turishi mumkin;

**2. Xizmat sifatini o'stirish:** mijozlarning baholari, fikrlari asosida umumiy xulosalar chiqarish, yo'l qo'yiladigan kamchiliklarni bartaraf etish, mijozlarga maqlul keladigan xi-zmatni taklif qilish mumkin.

**3. Xizmat haqida yangi takliflar olish:** mijozlarning takliflari asosida ko'rsatilayotgan xizmatni rivojlantirib, yanada mukammallashtirib, mijozlarga maqlul keladigan yangi xi-zmatlarni kashf qilish mumkin.

**4. Yanada ko'proq foydalanuvchilarini jalb qilish:** xizmat sifatini oshirish foydalanu-vchilar sonining oshishiga sabab bo'ladi, qabul qilinganlik darajasini oshiradi va muvaffaqi-yat garovi bo'lib xizmat qiladi.

**5. O'zaro munosabatlarni rivojlantirish** – foydalanuvchilar fikr va takliflarini inobatga olish xizmat ko'rsatuvchi va mijoz o'rtaсидаги o'zaro munosabatlarni yaxshilaydi. O'zaro is-honch va hurmatni yuksaltiradi.

«SAFE MOBILE» ilovasidan ixtiyoriy xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar foydalanishlari mumkin, jumladan mehmonxonalar, banklar, restoranlar, tibbiyot maskanlari, telekommunikatsiya kompaniyalari, ta'lim muassasalari, savdo markazlari, Davlat xizmatlari markazlari va hokazolar.

#### Xulosa:

«SAFE MOBILE» ilovasi aloqa kompaniyalariga ulkan foya keltiruvchi bir vosita sifatida xizmat qiladi. Android platformalarida ishlashi va sodda, intuitsiyaviy interfeysi orqali foydalanuvchilarga ma'qul keladi. Kotlin dasturlash tilida yozilgan ushbu ilovamiz mobil aloqa sohasida yangiliklar va yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etish uchun eng qulay vositadir. Bizning ilovamiz foydalanuvchilarni qiziqtirishga, xizmatlarni sifatli taqdim etishga va kompaniyalar uchun mijozlar bilan xavfsiz, ishonchli aloqalar yaratishda yordam beradi.

Ushbu ilova quyidagi imkoniyatlarni taqdim qiladi: mobil qurilmalar orqali mijozlar bilan aloqada bo'lish, ularning xohish-istiklari haqida, vaziyatlar haqida ma'lumotlarga ega

bo'lish; kompaniyalarni tahlil qilish va takomillashtirish uchun statistik ma'lumotlar bilan ta'minlash, so'nggi texnologiyalardan foydalanish.

Ijtimoiy tarmoqlar, xususan, ijtimoiy media platformalari kompaniyalar mijozlarining fikrlarini bilish uchun yaxshi manbadir. Mobil xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar mijozlar orasida o'zlarining mustahkam o'rinaliga ega bo'lishlari uchun esa aloqa sifatini yaxshilash eng muhim masaladir. Aloqa sifatini oshirish uchun esa dastlab qayerda sifatli va qayerda sifatsiz aloqa mavjudligini bilish lozim. Buning uchun esa "SAFE MOBILE" ilovasi ko'magidan foydalanish kifoya. Mijozlar tomonidan qoldirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish barobarida kompaniyaning xizmat sifati qaysi hududlarda, qaysi tarmoqlarda oqsayotganligi oydinlashadi. Kompaniya mavjud muammolarini tez va ijobjiy bartaraf etib, ko'p sonli mijozlar e'tibor va e'tirofiga sazovor bo'ladi. Mijozlarning o'z fikrlari va takliflari qabul qilinishi va tadbiq etilishi natijasida kompaniya va mijozlar o'rtasida ishonch paydo bo'ladi, bu esa ko'p yillik mustahkam hamkorlikning garovidir.

Mijozlar fikrlari kompaniya uchun yangi xizmatlar, funksiyalar va mahsulotlar yaratishga sabab bo'lishi mumkin va rivojlanish jarayonini tezlashitirib yuborishi mumkin, buning natijasida esa yanada ko'proq mijozlar jalb etilishi mumkin.

Ushbu ilovani kompaniya ishchi xodimlarining xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshiroq bilish, xodimlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, eng yaxshi xizmat ko'rsatayotgan xodimlarni topib rag'batlantirish, ularni namuna qilib ko'rsatish, yoki aksincha, sust faoliyat yuritayotgan xodimlarni ogohlantirish maqsadida xodimlarning kundalik ish faoliyatini nazorat qiladigan, kompaniyaga kelgan, ketgan ish vaqtлari statistikasini olib boradigan, ishga kelmagan kunlarini hisobini yuritadigan funksiyalar bilan boyitish maqsad qilingan. Ushbu ilovaning mobil xizmat ko'rsatish kompaniyalaridan tashqari barcha turdag'i xizmat ko'rsatish kompaniyalari uchun va online xizmat ko'rsatadigan kompaniyalar uchun ham mos keladigan variantlarini yaratish nazarda tutilgan. Ilovani doimiy ravishda yangilab borish, sifatini oshirish, qo'shimcha funksiyalar kiritish maqsad qilingan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. John Hunt. Beginner's Guide to Kotlin Programming - USA.: Springer International Publishing, 2021. - 519.
2. Swati Saxena. Kotlin at a glance – USA.: BPB Publications, 2019. - 213.
3. Ияну Анделикан. Kotlin программирование на примерах - Санкт-Петербург.: БХВ- Петербург, 2020. - 432.
4. Дмитрий Жемеров и Светлана Исакова. Kotlin в действии - Москва.: ДМК, 2018.- 402.
5. Скин Джош и Гринхол Дэвид. Kotlin. Программирование для профессионалов - Санкт-Петербург.: Издательский дом ““Питер””, 2019. - 464.
6. Peter Sommerhoff. Kotlin for Android App Development - USA.: Packt Publishing, 2017. - 438.
7. “2022-2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga doir Davlat ilovai to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.



**РАҚАМЛИ ИҚТІСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ**  
**DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY**  
**ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ**

Электрон илмий журнал | Electronic scientific journal

*Muharrirlar:*  
Yaxshiyev H.T.  
Matxo'jayev A.O.

*Musahhih:*  
Matxo'jayev A.O.

*Tehnik muharrir:*  
Mirzayev J.O.

Litsenziya № 2537 08.02.2022 y. Bosishga ruxsat etildi 19.10.2023.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 19,9. Raqamli bosma.  
Adadi 50 nusxa. №16/10-2023 - sonli buyurtma.

“Zarafshon Foto” MCHJning matbaa bo‘limida chop etildi.  
100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek tumani, Shahriobod ko'chasi, 3-uy.

CONFERENCE "GLOBAL  
AND NATIONAL ECONOMIC  
TRENDS"  
19-20 OCTOBER

# 1st DIRECTION: TRENDS AND PROSPECTIVE DIRECTIONS OF GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT.

CONFERENCE "GLOBAL  
AND NATIONAL ECONOMIC

# TRENDS"

CONFERENCE  
DEVELOPMENT STRATEGY:  
NATIONAL ECONOMIC TRENDS

"IFRS"  
НОМЛИ  
КОНФЕРЕНЦИЯ

PARALLEL CONFERENCES  
"NEW2AN, ICFNDS  
AND ICDSIS"



TASHKENT  
STATE  
UNIVERSITY OF  
ECONOMICS

- Conditions for improvement of the business environment
- Corporate Accounting and Reporting
- Institutional problems of the business environment
- Training personnel for the business environment
- Business environment and digital technologies
- Digital technologies in the business environment



+998 71 239-28-94



<http://dgeconomy.tsue.uz/>



dgeconomy\_tdiu@mail.ru, dgeconomy@tsue.uz



100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.

ФОРУМ

- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agricultural Development

- Digitalization
- Green economy
- Environmental protection
- Artificial intelligence
- Digital technologies in the business environment